

**O‘ZBEK TILIDA RANG IFODALOVCHI SO‘ZLARNING KO‘CHMA
MA’NOLARI**

Avazberdiyeva Bahora Alijon qizi

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi

bahoraavazberdiyeva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21835813>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi rang so‘zlarining (oq, qora, qizil, sariq, yashil, ko‘k) ko‘chma ma‘nolari va ularning xalqimiz madaniyatidagi o‘rni yoritilgan. Tadqiqotda ranglarning shunchaki rang emas, balki inson ruhiyati, tuyg‘ulari va milliy qarashlarini ifodalash usullari tilshunoslik nazariyalari misolida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: ranglar, ko‘chma ma‘no, iboralar, metafora

Annotation: This paper explores the figurative meanings of color terms (white, black, red, yellow, green, blue) in the Uzbek language and their role in national culture. It analyzes how colors represent human psychology, emotions, and cultural values based on linguistic theories.

Keywords: colors, figurative meaning, idioms, metaphor, linguaculturology.

Аннотация: В данной статье рассматриваются переносные значения названий цветов (белого, черного, красного, желтого, зеленого, синего) в узбекском языке и их роль в национальной культуре. На основе лингвистических теорий анализируются способы выражения цвета в контексте психологии человека, эмоций и национального мировоззрения.

Ключевые слова: цвета, переносное значение, фразеологизмы, метафора, лингвокультурология.

Til — insoniyatning turmush-tarzi, madaniyati, ruhiyati va tarixiy tajribasini o‘zida jamlagan nodir hodisadir. Inson atrof-muhitni idrok etar ekan, borliqdagi predmet va hodisalarning turli belgilarini ajratadi. Ushbu belgilar orasida eng birinchilardan bo‘lib ko‘zga tashlanadigani va inson his-tuyg‘ulariga bevosita ta‘sir ko‘rsatadigani ranglardir.

Tilshunoslikda rang-tusni bildiruvchi so‘zlar xromatonimlar deb ataladi. Rang leksikasi har bir tilda o‘ziga xos boy qatlamni tashkil etadi. O‘zbek tilida rang nomlari faqatgina ob‘yektiv borliqdagi narsalarning tashqi ko‘rinishini ko‘rsatib qolmay, balki chuqur ko‘chma ma‘nolarni ham anglatadi. Ushbu maqolaning maqsadi — o‘zbek tilidagi rang ifodalovchi so‘zlarning ko‘chma ma‘nolarini sodda, tushunarli va tizimli uslubda tahlil qilish, ularning iboralar (frazеologizmlar) va ko‘chma ma‘noli birikmalardagi o‘rnini yoritib berishdan iborat. Rang nomlarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma‘nodan ko‘chma ma‘noga o‘tishi tasodifiy hodisa emas. Bu jarayon insonning mantiqiy fikrlashi va taqqoslash



qobiliyati bilan bog'liq. O'zbek tilida rang leksikasida ma'no ko'chishi asosan quyidagi uchta usulda yuz beradi:

1. Metafora (O'xshatish asosida ma'no ko'chishi) Predmet yoki hodisalarning rang jihatidan o'xshashligi insonning harakteri, ruhiy holati va axloqiga ko'chiriladi.

Misol: Oq ko'ngil — toza, dog'siz narsalarga o'xshatilib, ayyorligi yo'q, halol insonga nisbatan ishlatiladi.

2. Metonimiya (Aloqadorlik asosida ma'no ko'chishi) Biror rang va muayyan ijtimoiy hodisa o'rtasidagi doimiy bog'liqlik sababli rang nomi o'sha hodisaning nomiga aylanadi.

Misol: Sariq matbuot — ilk bor arzon va sifatsiz sariq qog'ozda chop etilgani sababli bugungi kunda shov-shuvli va ishonchsiz xabarlarini ifodalaydi.

3. Frazologizmlar (Turg'un birikmalar) Rang nomlari turg'un birikmalar tarkibiga kirib, o'zining mustaqil ma'nosini yo'qotadi va yaxlit bitta majoziy ma'noni beradi. Misol: yuziga qora surmoq — so'zma-so'z yuzni bo'yash emas, balki sharmanda qilmoq, obro'sizlantirmoq degan ma'noni anglatadi. Quyida ranglarning ko'chma ma'nolarda qo'llanishiga bir necha asosiy ranglarni misollar bilan ko'rib chiqamiz:

Oq rangi o'zbek xalqida ezgulik, soflik, omad va tozalik timsoli hisoblanadi: oqko'ngil (niyati toza, kibrsiz inson). Ezgu tilak ma'nosida ham qo'llanadi: oq yo'l (safaringiz bexatar bo'lsin), oq fotiha (ezgu ishga ruxsat va duo berish). Rozi-rizolik ma'nosida: oq sutini kechmoq (onaning farzandidan rozi bo'lishi). Erkinlik: oq bayroq (tinchlik, taslim bo'lish yoki kelishuv belgisi).

Qora esa oq rangning tamomila aksi bo'lib, qayg'u, yovuzlik, yomon xabar va oddiylikni ifodalaydi. Qadimda qora rang buyuk va ulkan ma'nolarda ham kelgan. Masalan, Qora dengiz bu ulkanligiga nisbatan shu so'z qo'llangan. Qayg'u va musibat ma'nosida: qora kun (kutilmagan fojia, og'ir davr), qora xabar (musibatli xabar). Og'ir mehnat va mashaqqatni ifodalagan: Qora mehnat (katta jismoniy kuch talab qiladigan, kam haq to'lanadigan ish). Yovuzlik va bag'ritoshlik: qora niyat (yomon reja). Oddiylik va ko'pchilik: Qora xalq (oddiy el-ulush, fuqarolar). Sharmandalik ma'nosida ham qo'llanadi: Yuzini qora qilmoq / Yuzi qora bo'lmoq (obro'sizlanmoq, sharmanda bo'lmoq). Masalan, sharq madaniyatida qora rang motam va o'lim standarti bo'lsa, o'zbek klassik adabiyotida, Alisher Navoiy yoki Abdulla Qodiriy asarlarida ham g'am-hasrat simvoli sifatida kelgan. Buning yaqqol misolini, "O'tkan kunlar" asari so'ngidagi O'zbek oyimning Kumush vafoti bilan butun hayoti izdan chiqqani, yolg'iz



farzandi tirik bo'la turib, bag'rini bo'sh qoldirib tashlab ketishi, ya'ni hayotidagi fojialarga ishoradir.

Sariq rangi tabiatda xazon va eskirish belgisi bo'lgani uchun dilda iztirob, sarsonlik va kasallik ma'nolarini anglatadi. Uzoq kutish va sarsonlik: sarg'ayib kutmoq (intizor bo'lib, uzoq vaqt sabr bilan kutish). Ishonchsizlik va bo'hton: sariq matbuot (shov-shuvli, arzon va yolg'on xabarlar tarqatuvchi OAV).

Yashil rang esa yangi hayot, rivojlanish va imkoniyat belgisi hisoblanadi. Imkoniyat ma'nosida: yashil chiroq yoqmoq (biror ishga ruxsat berish, sharoit yaratish), yoshlik va navqironlik: yashil fasl (inson umrining navqiron va kuch-quvvatga to'la davri).

Asosiy ranglardan tashqari, boshqa rang nomlari ham kundalik va badiiy nutqda ko'chma ma'nolarda faol qo'llaniladi:

Kulrang zerikarli, ajralib turmaydigan, tushunarsiz holat va hayotdagi og'ir jarayonni anglatadi: kulrang hayot: bir xil va zerikarli turmush tarsi, kulrang kardinal: sahna ortida turib jarayonlarni yashirin boshqaradigan shaxs.

Pushti esa xayolparastlik va real voqelikdan yiroqlik ma'nolarida keladi. Masalan, pushti ko'zoynak orqali qaramoq: dunyoni faqat yaxshi tomondan ko'rib, muammolarni payqamaslik.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, rang nomlari (xromatonimlar) faqatgina narsalarning tashqi ko'rinishini aks ettirmay, balki insonning ichki kechinmalari, axloqi va ijtimoiy munosabatlarini ifodalovchi boy semantic ko'chma ma'no qatlamiga ega. Bundan tashqari ranglarning ko'chma ma'nolari o'zbek xalqining ko'p asrlik hayoti, tushunchalari va lingvokulturologik qarashlari asosida shakllangan (masalan, oq ko'ngillik, yuzini qora qilish). Rang bilan qo'llangan metafora va iboralar so'zlashuv va badiiy nutqning ta'sirchanligi hamda jozibadorligini oshiruvchi eng muhim lingvistik vositalardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik izohli lug'ati. — Toshkent: O'qituvchi, 1978.
2. Berlin, B., & Kay, P. (1969). Basic Color Terms: Their Universality and Evolution. Berkeley: University of California Press.
3. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press.
4. Wierzbicka, A. (1996). Semantics: Primes and Universals. Oxford: Oxford University Press.
5. Lüscher, M. (1969). The Lüscher Color Test. New York: Random House

